

## TABIAT NE'MATLARIDAN OQILONA FOYDALASHI ZAMON TALABI

Sadullayeva Farida Farxod qizi

Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tabiat boyliklaridan foydalanish jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan qoidalar yoritilgan. Ularga amal qilmaslikning natijasi ham batafsil keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Ekologik monitoring, ekologik me'yorlash, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, ekologik sertifikatlashtirish.

**Kirish:** Hayotimiz kun sayin jadal rivojlanib boryapti. Globallashuv jarayonida tabiat boyliklaridan jadal foydalanilmoqda. Hozirgi vaqtda inson yashab, to'xtovsiz munosabatda bo'lib kelayotgan tabiiy muhit 4,5-4,7 milliard yil mobaynida bir qancha omillar ta'siri ostida tarkib topgan.

Har qanday tirik mavjudot o'z atrofini o'rab turgan tabiiy muhit bilan o'zaro ta'sir ostida bo'ladi, undan o'ziga kerakli narasalarni oladi va shu muhitga moslashadi.

Yerda odamning paydo bo'lishi organik dunyo bilan tabiiy muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatni tubdan o'zgartirib yubordi.

**Asosiy qism:** Inson tabiatga mehnat qurollari bilan yerdan noto'g'ri foydalanish natijasida katta ta'sir ko'rsatadi. Inson ulg'aygani sari tabiat ne'matlaridan ko'proq foydalana boshlaydi va natijada insonning tabiatga ta'siri kuchayadi. Insonlarning hayvonot va o'simlik olamidani rejasiz foydalanishi yoki insoniyatning tabiatga boshqacha ta'siri tufayli umurtqali hayvonlarning 250 turi XVI asrning oxirlaridan XX asrning 70-yillarigacha yo'qolib ketdi. Insoniyatning tabiat boyliklaridan foydalanishi hech qachon tugamaydi. Lekin tabiat ne'matlari abadiy emas, ular bir kuni biz istaymizmi yo'qmi baribir tugaydi. Bizning nazarimizcha charaqlab turgan quyosh nurlari, shaldirab oqayotgan suvlar, hayvonot, o'simlik olami, yer usti va yer osti boyliklari qancha foydalansak ham tugamaydigandek go'yo. Ammo hech bir inson, bashoratchi, olimlar bu ne'matlarning tugamasligini isbotlay olmaydi. Biz har kuni uyqudan uyg'onganda ko'zimiz tushadigan quyosh nurlari bir kuni so'nadi. Agar kundalik hayotimizda 1 soatgina svet o'chsa hayotimiz qanday zulmatga aylanadi?! Endi faraz qiling har tongimizga iliqlik baxsh etayotgan quyosh nurlari birdan yo'q bo'lib qoldi. Tasavvur qildingizmi? Daxshatli-a? Balki yiliga 2 kungina quyosh chiqadigan yo umuman quyosh chiqmaydigan joylarda yashovchi odamlar uchun quyoshning so'nishi katta xavfmasdek tuyular, lekin har tongni quyosh nurlari bilan boshlovchi insonlar uchun quyoshning so'nishi daxshatli halokat. Ha mayli hayotimizning barchasi quyosh bilan bog'liqmas, undan ham zarur narsalar bor. Masalan, suv, ob-havo, oziq-ovqat va boshqalar. Oziq-ovqatsiz, suvsiz qanchadir muddat yashay olarmiz, ammo havosiz 5 soniya ham yashay olmaymiz. Shunday ekan nega insoniyat hammasidan ko'p havoni ifloslantiradi? Nega havo ifloslanishini oldini olmaymiz? Yoki havo ifloslansa ham yashayveramiz deb o'ylaymizmi? Bir-biriga qarama-qarshi fikrlarimiz juda ko'p. Biroq biz o'ylab olgunimizcha tabiat, tabiiy boyliklar, vaqt, umr bizni kutadimi? Albatta yo'q. Hatto soniyalar ham bizni kutmaydi. O'tib ketgan 1 soniyani qaytarishni iloji yo'q bo'lmagandek tabiatga yetkazilgan zararni to'liq tiklashning ham iloji yo'q azizlar. Havoni tozalab turishi uchun qanchadan-qancha gul, o'simlik, daraxtlar ekamiz. Lekin saviyamizning shu darajada pastligi tufayli qancha-qancha ko'p yillik daraxtlar, gullarni nobud qilamiz. Butun insoniyat, insonlar qachon o'z harakatlarining oqibatini tushunib yetadi? Qachon bunday ko'ngilsizliklar nihoyasiga yetadi? Bunga javob yo'q emas bor. Faqat insonlar o'z nafi yo'lida baribir tabiatni nobud qilishadi. Mayli zavod, fabrikalar, korxonalar faoliyatisiz insoniyat yashay olmaydi, lekin nega shuncha ixtirolar yaratgan insoniyat olami o'z harakatlarini oqibatlarini yaxshilaydigan ixtirolar yarata olmaydi? Bunday ixtirolar yo'q deya olmaymiz bor, ammo juda kam, xuddi to'lib turgan okeanga bir tomchi suv tushganda bilinmagani kabi. Insoniyat atrof-muhitga ko'p zarar yetkazayotgani uning oxiri yo'q. Bir kuni hamma harakatlarimizning javobi bor. Kun

keladi tabiat shuncha olgan jaroxatlari uchun insoniyat olamidan birma-bir javob oladi, ana shu paytda bu javobni insoniyat ko'tara olmay qoladi.

Men bir savolga haligacha javob topolmayapman, izlayapman topyapman lekin barbiri meni qoniqtirmayapti. Bu savol shunday: "Tamaki ishlab chiqaruvchilar tamaki ishlab chiqarib sotganidan daromad oladi va oilasini boqadi. Tamakining nafaqat o'zi balki tutuni uni iste'mol qilayotgan odam bilan birga uni yaqinidagi odamga, qolaversa yaqinlariga zarar ekanligini barchamiz bilamiz. Tamaki ishlab chiqaruvchilar butun insoniyatni tamaki bilan ta'minlab yana nega tamaki qutisining ustiga ta'maki chekish ziyon ekanligini, ko'p iste'mol qilish esa til raki va boshqa kasalliklarga hatto o'linga sabab bo'lishini yozib qo'yadi? Eh, jumboqli, oxiri yo'q, javobsiz savollar. Qarang qiziqda o'ziz pishirgan ovqatni kimgadir yeyish uchun beryapsizda yana buni ko'p yema, bu zararli, o'lishing mumkin deyapsiz. Qanday kulguli va achinarli holat. Bir tarafdin bunday yozuvlar orqali insonlarni qutqarmoqchi bo'lishadi, lekin shu narsa bilan insonlarni o'zlari ta'minlashadi. Xullas, aytaman desam muammo va kamchiliklar juda ko'p. Lekin, bu muammolarni aytib ketaverish emas balki, muammo yechimini topib ketish kerak. Masalan, ekologiya sohasida davlat boshqaruv organlari faoliyatini qattiq nazoratga olish kerak.

Tabiatni saqlab qolish, uni kelajak avlodlarga yetkazib berish maqsadiga erishishda, tabiat xossalarini saqlab qolishda jamiyatning ijtimoiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda o'rnatiladigan tabiatga ta'sir ko'rsatishning bilmiy asoslangan chegara yohud me'yorini o'rnatish eng muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqsadga esa, albatta, ekologik me'yorlash orqali erishiladi. Ekologik me'yorlashni to'g'ri olib borishda esa ekologik monitoring alohida o'rin egallaydi.

Ekologik monitoring tabiiy atrof-muhitni kompleks kuzatish olib borishdan iborat bo'lib, ulardagi antropogen ta'sirlarni o'zgarishlari uzoq vaqt davomida kuzatiladi. Natijada ekologik ahvol baholanib, zararli va havfli bo'lgan moddalarning tirik organizmlarga, hamjamoalarga va boshqa organizmlarga ta'siri haqida xulosa chiqariladi. Ekologik monitoring global, mintaqaviy va mahalliy darajada olib boriladi. Ekologik monitoring atrof muxit monitoringi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unga asoslanadi. Respublikamizda ekologik monitoring Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 5 sentyabrda 737-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi to'g'risida"gi nizom va Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 23 avgustda 273-son qarori bilan tasdiqlangan "2016 — 2020 yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit monitoringi Dasturi" asosida amalga oshiriladi.

**Ekologik me'yorlash** – bu davlat organlarining atrof tabiiy muhit sifatini, tabiiy resurslardan foydalanish hajmini va boshqa ko'rsatkichlarini belgilash bo'yicha faoliyatidir. Ya'ni bu faoliyat standartlashtirish, sertifikatlashtirish orqali amalga oshiriladi. Masalan, oddiy bakalajkani ishlab chiqarayotganda ham qat'iy belgilangan standartga amal qilinadi. 0,5 litrlik 1000 ta bakalajkani ishlab chiqarish bo'yicha kelishuv belgilandi. Uning 500 tasi 0,75 litrlik qilib ishlab chiqarildi. Endi u belgilangan me'yordan oshib ketdi hamda kelishuvga mos emas. Bu ham hamkorlarni yo'qotishga sabab bo'ldi, ham moddiy tarafdin zarar keltirdi. Shuning uchun ham standartlashtirishga qat'iy amal qilish kerak.

Aholi yashash punktlarida havo sifatini nazorat qilish qoidalari belgilangan. Agar mashinadan haddan ziyod ko'p tutun chiqsa, bu holat mashina nosozligi tufayli bo'layotgan bo'lsa haydovchi, yoqilg'i tufayli bo'layotgan bo'lsa unda yoqilg'i ishlab chiqaruvchilar javob berishi shart. Sababi yoqilg'ilar ham belgilangan me'yorga amal qilgan holda ishlab chiqilishi kerak. Axir mashina tutuni nafaqat aholi salomatligiga, balki o'simlik va hayvonot dunyosiga jiddiy ziyon yetkazadi.

Ekologik me'yorlar tabiiy resurslardan foydalanish, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatishni tartibga soluvchi huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan texnik ko'rsatkich hisoblanib, har xil shakllarda o'z aksini topadi. Ekologik me'yorlash esa ushbu ko'rsatkichlarni belgilash, tasdiqlash va joriy qilish bilan bog'liq bo'lgan davlat organlarining faoliyatidir.

Davlat organlarining normativ hujjatlariga qoida, me'yorlar va belgilangan ko'rsatkichlarning kiritilishi standartlashtirish jarayoni deb nomlanadi. O'zbekistonda ekologik standartlar o'tgan asrning 70 - chi yillaridan boshlab joriy qilib kelingan. «Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilash sohasida standartlar tizimi» GOST.17.00.01-76 standarti joriy qilingan. Ushbu standart ekologiya sohasida standartlashtirishning bosh standarti hisoblanib, boshqa standartlar esa undan kelib chiqib belgilanishi lozim.

Ekologik standartlashtirishning tizimi uchta asosiy yo'nalishdan iborat:

birinchi yo'nalishdagi standartlar atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatishning yo'l qo'yiladigan ekologik me'yorlarini belgilash tartibi va shartlarini o'z ichiga oladi;

ikkinchi yo'nalishdagi ekologik standartlar atrof tabiiy muhitning muhofaza qilinishini tashkillashtirishga taalluqli talablarni belgilaydi. Masalan, aholi punktlarida havoning sifatini nazorat qilish qoidalari belgilangan;

uchinchi yo'nalishdagi standartlar atrof tabiiy muhit muhofazasiga taalluqli tushunchalarning yagona talablarini belgilaydi. Masalan, yer osti suvlarining foydalanish turlariga qarab klassifikatsiyasi belgilangan.

Sertifikatlashtirish – guvohlik berish, qayd yoki shaxodat etish, ishonch bildirish ma'nolarida ishlatiladi va ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini uchinchi, xolis va tan olingan tomon tarafdin tasdiqlaydigan faoliyatni bildiradi. Sertifikatlashtirishda mahsulotning sifati haqida iste'molchini ishontiradigan tegishli hujjat – sertifikat beriladi. Ekologik sertifikatlashtirish mahsulot, ishlarning atrof tabiiy muhit holatiga zararli ta'sir ko'rsatmaslik darajasini aniqlash uslubi hisoblanib, ishlab chiqarilgan mahsulot yoki bajarilayotgan ishlarning belgilangan standartlar va boshqa me'yorlarga mos kelishini aniqlaydigan jarayon.

“Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonunning 46 – moddasiga asosan, ekologik sertifikatsiz xom ashyo va materiallarni ishlatish, texnologik jarayonlarni joriy etish va mahsulotlar ishlab chiqarish man etiladi.

Ekologik sertifikatlashtirish quyidagi turlarga bo'linadi:

- ob'ekti bo'yicha – mahsulotlar, bajarilayotgan xizmatlar (ishlar), ishlab chiqarish jarayonlari, chiqindilarni ekologik sertifikatlashtirishga;

- majburiyligi bo'yicha – majburiy va ixtiyoriy ekologik sertifikatlashtirish.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, tabiatni asrash har zamon o'z qo'limizda. Loqaydlikni yig'ishtirsak hamma jarayon o'z o'rnida ketadi. Agar AQSH, Xitoy, Hindiston, Rossiya kabi sanoat davlatlari havo ifloslanishini olishga doir kuchli amaliy ta'sir choralarini ko'rsa, iqlim o'zgarishi natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarining oldi olingan bo'lardi. Qisqasi tabiat unga yetkazgan zararlarimiz uchun qasos olmasidan oldin, barcha davlatlar global hamkorlikka kirishsalar nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ekologiya huquqi. Darslik // Bozorov U.B., Xolmo'minov J.T., Juraev Y.O., Usmonov M.B. va boshqalar. Mas'ul muharrir yu.f.d., prof. J.T.Xolmo'minov. – T: TDYU, 2019. B.76-92.
2. Ekologiya huquqi. Darslik. Usmonov M.B., Rustamboyev M.H., Xolmuminov J.T. va boshq. Mas'ul muharrir: M.B.Usmonov.-Toshkent: TDYI, 2006. B.64-77.
3. Ekologicheskoe pravo : Uchebnik / pod red. S. A. Bogolyubova. — E40 2-ye izd., pererab. i dop. — M.: Izdatelstvo Yurayt ; ID Yurayt, 2011. S.111-134.